



THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF UZBEKISTAN FOLK INSTRUMENTS IN THE SPIRITUAL UPGRADE OF SOCIETY

Tokhir Shokirov

Senior Lecturer

FarDU Department of Music Education and Culture

toxir1304@gmail.com

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: instrument, spirituality, national, heritage, music, value, tradition.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: This article discusses the role and significance of Uzbek folk instruments in the spiritual upliftment of society. Uzbek folk instruments enhance human spirituality, enhance our attitude to, respect for, and pursuit of our national values, and ensure greater knowledge of our national traditions.

O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARINING JAMIYAT MA'NAVIY YUKSALISHIDA O'RNI VA AHAMIYATI

Tohir Shokirov

Kafedrasi katta o'qituvchisi

FarDU Musiqiy ta'lim va madaniyat

toxir1304@gmail.com

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: cholg'u, ma'naviyat, milliy, meros, musiqa, qadriyat, an'ana.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq cholg'ularining jamiyat ma'naviy yuksalishida o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan. O'zbek xalq cholg'ulari inson ma'naviyatini oshirib, uning milliy qadriyatlarimizga bo'lgan munosabati, hurmati, izlanishi hamda milliy an'alarimizni yanada ko'proq bilishini ta'minlaydi.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ НАРОДНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ УЗБЕКИСТАНА В ДУХОВНОМ ВОЗРОЖДЕНИИ ОБЩЕСТВА

Тохир Шокиров*Старший преподаватель**Кафедра музыкального образования и культуры ФарДУ*tohir1304@gmail.com*Фергана, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: музыкальный инструмент, духовность, национальное наследие, музыка, ценность, традиция.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение узбекских народных инструментов в духовном развитии общества. Узбекские народные инструменты повышают духовность человека и обеспечивают его отношение к нашим национальным ценностям, уважение, поиск и знание наших национальных традиций.

Kirish. Ilmiy-tajriba laboratoriyasi tomonidan takomillashtirilgan va konstruksiyalangan cholg'u asboblari musiqa amaliyotiga kiritilgan hamda O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Qoraqalpog'iston professional o'quv yurtlarida, konsert tashkilotlarida hamda havaskoriik jamoalarida keng ishlatilmoqda. Ular Moskva, Leningrad, Toshkentdagi doimiy muzeylarda ko'rgazm aga qoyilgan. Laboratoriyada tajvoriangan cholg'u asboblari Moskva shahridagi Xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasida ko'p marta namoyish qilinib, medallar bilan taqdiriangan. Milliy cholg'u asboblarini takomillashtirish bo'yicha laboratoriya faoliyatining hamda orkestriar tuzilishining ahamiyati to'g'risida mamlakatimizning taniqli san'at arboblari va chet ellik mehmonlar gapirishgan. «Правда Украины» gazetasining 1952- yil 10- avgust sonida e'ion qilingan “Qardosh O'zbekiston san'ati” maqolasida: “O'zbekiston Davlat Xalq cholg'u orkestrining Kiyevda va respublikaning boshqa shaharlarida muvaffaqiyat bilan ko'rsatilgan konsertlari ukrain sovet musiqa san'ati arboblari uchun juda ibratlidir. Oldimizda ukrain xalq cholg'u orkestrini tashkil qilish vazifasi turibdi. Rus, o'zbek sozandalarining tajribalari ularga bu ishda juda ko'maklashishi shubhasiz...”, — deb yozilgandi. Taniqli xitoy musiqa arbobi, kompozitor Xo Li Tin “Jenminjibao” gazetasida e'ion qilingan maqolasida (bu maqola «Советская музыка» jurnalinhig 1957- yil 1- sonida ham berilgandi) bunday deb yozgandi: “Masalan, O'zbekiston milliy cholg'u orkestri o'z milliy asarlarinigina emas, balki murakkab simfonik asarlarni ham ijro etadi. Bundan ularda ijrochilik mahorati qanchalik darajada yuqori rivojlanganini va milliy cholg'u orkestri imkoniyatlari qanchalik ulkanligini tushunsa bo'ladi”. So'ng muallif: “ularning cholg'u asboblari garchi boyligi va rang-barangligi bilan ajralib tursa-da, baribir asosan o'zgarishsiz xalq cholg'usiligicha qolgan”, — deb ta'kidlagandi. U O'zbekistonning milliy sozlarni takomillashtirish hamda orkestr tuzish bo'yicha tajribasini o'zlashtirishni taklif qilgandi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi T.N.Qoriniyoziy:

“Rekonstruksiyalash ushbu cholg‘u asboblarning akustik sifatini yaxshilashga ko‘maklashdi, shuningdek, notalar bo‘yicha chalish imkoniyatini osonlashtirdi. Rekonstruksiyalangan cholg‘uda o‘zbek ijrochilik uslubining o‘ziga xosligini buzmaganda har qanday ko‘p ovozli asarni notalar bo‘yicha ijro etish mumkin, bu ulkan prinsipial ahamiyatga ega”, — deb yozgandi[1].

Adabiyotlar tahlili. Ko‘plab san‘at va madaniyat arboblari tajriba laboratoriyasi ishi bilan tanishib va uni tahlil qilib, mulohazalar kitobida o‘z fikrlarini yozib qoldirishgan. Quyida shu fikr-mulohazalardan ayrimlarini keltiramiz: Vinogradov: “A. I. Petrosyans rahbarligidagi rekonstruksiyalangan cholg‘u asboblarni tayyorlash bo‘yicha Toshkent ustaxonasining faoliyati xalq cholg‘u orkestrlarining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. Bu yerda ko‘plab va turli-tuman amaliy tajribalar o‘tkazildi, nazariy hisob kitoblar amalga oshirildi, cholg‘u oilalari tajribaviy namunalari tayyorlandi va h. k. Ekkeriya Sertel — Jahon Tinchlik Kengashi a‘zosi: “Men Toshkent va Olmatadagi konservatoriyalarga bordim, milliy filarmoniya konsertlarida bo‘ldim, u yerlarda shunday milliy cholg‘u orkestrlari tuzilganki, hayratdan liling lo‘l qoladi. Ushbu barcha milliy cholg‘u asboblari bizlarda ham bor, biroq ularning ustida ishlashni hech kim lozim topmaydi. O‘zbekistonda liq bir cholg‘u asbobi o‘rganiladi, kamchiliklari bartaraf etiladi va ularda iifafaqat xalq qo‘shiqchilari, balki klassiklar asarlari ham ijro etiladi...” Y. V. Keldish — Teatr va musiqa instituti direktori, san‘atshunoslik fanlari doktori, professor: “Yangidan yaratilgan o‘zbek, qirg‘iz, turkman cholg‘ularining tajriba laboratoriyasi tomonidan ishlab chiqilgan kolleksiyasi institutimizning doimiy ko‘rgazmasiga qo‘yilgan va ko‘p sonli sovet hamda chet ellik keluvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi. Ular boshqa respublikalarning shu kabi eksponatlari qatorida sovet konstruktorlari va ustalari tomonidan milliy cholg‘u musiqa madaniyatini rivojlantirish sohasida erishilgan yutuqlarni yaqqol namoyish qiladi”. Pudyan — Nepal madaniyat vazirining o‘rinbosari, Xofle — madaniy korporatsiya bosh direktori, Krotxa — mashhur nepal qo‘shiqchisi: “Bu yerda zamonaviy talablarga javob berish maqsadida yaxshilangan qadimgi cholg‘u asboblari kolleksiyasidan hayratga tushdik, chunki madaniyat Kcografik chegaralarga ega emas, sizlarning va bizlarning sozlarimizda o‘xshash jihatlari ko‘pligini ta‘kidlashdan xursandmiz. Qiyinchilik biz siz fga bo‘lgan xalq cholg‘u asboblarni rekonstruksiyalash hamda takomillashtirish borasidagi zamonaviy texnikani o‘rganishimiz mumkin va lozimligidadir”. M. S. Gautami — hind olimi: “Men Toshkentdagi Petrosyans rahbarlik qilayotgan laboratoriyaga tashrif buyurdim va qadimgi xalq cholg‘u asboblarni yaxshilashga bo‘lgan zamonaviy ilmiy yondashuv menga kuchli ta‘sir qildi. Professor Petrosyans turli xalq cholg‘ularining tashqi ko‘rinishini, loyushini, diapazonini, tartibini qanday yaxshilashni, ulardan g‘arb klassik kuylarini ijro etishda ham foydalanish imkoniyati yaratilganligini hikoya qilib berdi. Shuningdek turk cholg‘ularining barcha detallari bilan yaratilgan yangi cholg‘u asboblarning hilma-hil chizmalarini ham ko‘rsatdi. Xalq kuylariga va xalq cholg‘u asboblariiga boy mamlakat uchun bu

kabi laboratoriya bir tuhfadir. Mening mamlakatim — Hindiston unisiga ham, bunisiga ham boy va men ushbu laboratoriyaga tashrif buyurganimdan hamda professor Petrosyans tajribalaridan ilhom oldim. Yaqin vaqtlar ichida shu kabilami joriy eta olamiz. M. I. Imxaniskiy — san’atshunoslik fanlari doktori, Gnesinlar nomidagi Davlat musiqa-pedagogika instituti (Moskva sh.) professori: “Laboratoriyadagi cholg’ular turlari va tiplarining rang-barangligi, boyligidan hayratdaman. Ustalar, konstruktorlar va rekonstruktorlarning cholg’u asboblari xalq-milliy ibtidosi tub asoslarini saqlab qolishga yo’naltirilgan ijodiy xayoloti lol qoldiradi. Mening nazarimda, laboratoriyaning faoliyati nafaqat O’zbekistonning, hatto Sharq xalqlarining cholg’u asboblari takomillashtirish uchun teng darajada muhim. Laboratoriya ishi olib borilayotgan yo’nalishlar rus xalq cholg’u asboblari uchun ham juda dolzarb. Chunki V. V. Andreyev, uning safdoshlari, hamkasblari tomonidan boshqa slavyan respublikalarida va mamlakatlarida, masalan, balalaykalarining turga oid tiplarini (aytaylik, hali ham yetarlicha sadoli bo’lmagan sekundalar va altlarni) yaratishdir.

Natija va muhokama. Milliy cholg’ularni hamda ularda ijro etish madaniyatini mukammallashtirish g’oyasining ilg’or mohiyatini tasdiqlaydi. “Badiiy jarayonning har qanday sohasini o’rganishda gap faqat ijod haqida hamda ijod natijalarini takrorlash haqidagina emas, balki tinglovchi haqida, ya’ni ijod, ijrochilik va tinglovchining o’zaro aloqasi haqida ham boradi. Iste’dodli sozandaga professional mahoratni ancha tez o’rgatish mumkinligi isbotlangan, biroq ommaviy tinglovchini tarbiyalash — ancha qiyin va uzoq davom etadigan jarayondir[2].

Qisqa tarixiy muddatda milliy respublikalarda, shu jumladan O’zbekiston Respublikasida ham, musiqa san’atining opera, balet, simfoniya, oratoriya kabi va hokazo murakkab janriari o’zlashtirildi. Biroq ushbu ijodiyotni qabul qiluvchi tinglovchilarni tarbiyalash ancha qiyin ish bo’lib chiqdi. Shu munosabat bilan takomillashtirilgan o’zbek xalq cholg’u asboblarning va ularda akademik yozma ijrochilikning zamonning eng dolzarb muammolaridan biri — keng xalq ommasini, ayniqsa, o’sib kelayotgan avlodni estetik tarbiyalash, ularni professional yozma-ko’p ovozli san’atni qabul qilishga tayyorlashdagi roli bebahodir. Bugungi kunda aynan shunday yo’l tinglovchilarda badiiy didni tarbiyalashda hamda ularning ma’naviy iluniosini shakllashtirishda, badiiy ijodiyot bilan uni qabul qilish o’rtasidagi liddiy ajralishni bartaraf etishda eng ta’sirchan vosita bo’lishi mumkin.

An’anaviy kuy va xalq tomonidan tushunilishi asrlar davomida shakllanib kelgan ijrochilik madaniyatidan o’zbek xalqining barcha ijtimoiy gumhlari keng foydalanishi mumkinligi tabiiy. Ko’plab asrlar davomida o’z musiqasini yaratgan va uni idrok etib kelgan xalq boshqacha tuzilishdagi musiqani yozma an’adagi kompozitorlik ijodiyotini hamda yangicha ijrochilik iislubini (madaniyatini) tayyorgarliksiz, darhol qabul qila olmaydi. Bunga o’rgatish zarur.

“Har qanday mamlakatda umuminsoniy madaniyatni muayyan darajaila o‘zlashtirgan ziyolilarga qaraganda o‘ziga xos madaniyat vakillari beqiyos ko‘p. O‘z madaniyati osonlik bilan, ko‘p kuch sarflamay — ona suti bilan, odatiy muhit ta’sirida o‘zlashtiriladi. Umuminsoniy madaniyatni o‘zlashtirish iichun ko‘p yil kuch-g‘ayrat sarflash, iqtidor va katta moddiy va mehnat sarfi talab etiladi”[3].

O‘zbekistonda shularni hisobga olib, XX asrning 60 -70 - yillarida yozma manbadagi bolalar ansambllari hamda orkestrlari tuzildi. O‘sha davrda takomillashtirilgan bolalar cholg‘u asboblari oilasi (dutorlar va ruboblar) negizida o‘quvchilar saroylari, BMM va umumta’lim maktablarida bolalar jamoalari tuzildi. Ushbu orkestrlar dasturlarida milliy musiqa bilan bir qatorda qardosh xalqlar musiqasi va jahon klassikasi, zamonaviy kompozitorlar musiqasining eng yaxshi namunalari muhim o‘rin tutdi. Turli janrlar va elatlar asarlari Respublika maktab o‘quvchilari musiqiy repertuarining tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zbek xalq kuylaridan kompozitorlar tomonidan qayta ishlangan “Oromijon”, “Dutor bayoti”, “Ufori nasrullovi” va boshqalar[4].

Bolalar orkestrlari tomonidan muvaffaqiyatli ijro etilayotgan repertuar takomillashtirilgan milliy cholg‘u asboblari ijro diapazoni kengligidan dalolat beradi. Ulardan tuzilgan orkestrlar maktab o‘quvchilarini baynalmilal ruhda tarbiyalash, ularni qardosh xalqlar va chet mamlakatlar musiqa madaniyati bilan oshno qilishda boy imkoniyatlarga ega. Bizning kunlarga kelib takomillashtirilgan milliy cholg‘u asboblari respublika musiqa madaniyatidan mustahkam o‘rin oldi. Ular, bir tomondan, o‘z an’anaviy timsolining asosiy estetik xususiyatlarini o‘ziga oldi, ularning tembr negizini saqlab qoldi, boshqa tomondan esa, xromatik temperatsiya hamda akustik xususiyatlari yaxshilanishi, shuningdek dastlabki o‘zlashtirish osonligi tufayli (pardalari aniq bo‘lgan dator, rubob va boshqa cholg‘u asboblarini nazarda tutmoqdamiz), keng ommani ham musiqa bilan faol oshno qilishning mislsiz vositasi bo‘lib qoldi. Bu milliy respublikalar, shu jumladan asrlar davomida faqat an’anaviy cholg‘u asboblari hamda (tinglash orqali) ijrochilik hukm surib kelgan O‘zbekiston Respublikasi uchun ham juda muhim. Ushbu holatda takomillashtirilgan cholg‘u asboblarida (nota bilan) jamoa bo‘lib va individual ijrochilik musiqa ta’limida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasining (takomillashtirilgan) xalq cholg‘u asboblari va ularda ijrochilik amaliyoti nafaqat og‘zaki an’anaviy ijrochilik sohasida, balki yozma ko‘p ovozli ijrochilik sohasida ham ko‘rib chiqilishi lozim. Milliy cholg‘u asboblarida o‘ziga xos an’anaviy tinglab ijro etishga tan bergan holda, u O‘zbekiston musiqa madaniyatining muhim komponenti bo‘lsa-da, yagona emasligini ta’kidlash zarur. An’anaviy tinglab ijro etish, yangi — akademik yo‘ldagi yozma kompozitorlik ijodiyoti va ijrochilik san’ati o‘z ibtidosini boshlagachgina, an’anaviy, deb e’tirof etila boshlaganini aytib o‘tish kerak. Milliy cholg‘u asboblarini takomillashtirish va yangi yozma ijrochilik madaniyatini o‘zlashtirish yo‘li

“respublikalar va avtonom viloyatlarda yangi cholg‘u asboblari va ulardan tuzilgan orkestrlar bilan bir qatorda milliy kuylarni ularning barcha eng nozik xususiyatlarini to‘la saqlab qolgan holda ijro etuvchi an’anaviy cholg‘u asboblari, ansambllar va orkestrlar ham mavjud bo‘lib qolayotgani uchun ham to‘g‘ri, deb tan olinishi mumkin”[5].

Xalq cholg‘ularida nota tizimi bo‘yicha o‘qitish O‘quv yurtlarida nota tizimi bo‘yicha ta’limning joriy etilishi. Milliy cholg‘u ustaxonalarining faoliyati. 30-yillar o‘zbek musiqa madaniyatining o‘sish davri. Toshkentda birinchi musiqa oliy o‘quv yurtining tashkil qilinishi. O‘zbek davlat filarmoniyasi va nota tizimi bo‘yicha ijro etuvchi o‘zbek xalq cholg‘u orkestrining tuzilishi. Toshkent davlat konservatorisida “Xalq cholg‘ulari” bo‘limi va fakultetning ochilishi. Milliy musiqa cholg‘ulariga bo‘lgan talab va ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilishi. Ko‘p ovoqli milliy cholg‘u jamoalarining faoliyati, turli cholg‘ular uchun maxsus yozilgan asarlarning paydo bo‘lishi. Fortepiano jo‘rligida ijro etish. Musiqa asarini o‘rganishda dutor partiyasi bilan birgalikda ijro etiladigan fortepiano partiyasini puxta o‘rganish zarur. Fortepiano bilan birga ijro etishni musiqa asarini o‘zlashtirish jarayonida boshlagan ma‘qul. Shunda ijrochi o‘z partiyasini o‘zlashtirish bilan bir qatorda fortepianoda ijro etiladigan partiyani ham o‘ziga singdirib boradi. Ba’zi sozandalar o‘z partiyalarini oxirigacha o‘zlashtirib bo‘lganlaridan keyingina fortepiano bilan birgalikda ijro eta boshlaydi. Bu hol cholg‘uchi uchun birmuncha qiyinchilik tug‘diradi. Cholg‘u va fortepiano ijrosi uchun yaratilgan musiqa asarlarini kuzatsak, unda quyidagi o‘xshashliklarni uchratishimiz mumkin. Ba’zi musiqa asarlarida fortepiano cholg‘uchi (solist)ga jo‘r bo‘lish vazifasini bajarsa, boshqa musiqa asarlarida cholg‘u bilan fortepianoning partiyalari bir-birga teng va ma’lum darajada mustaqil xarakterga ega bo‘ladi. Birinchi holda kuyni boshqarib borish asosan cholg‘uchi (solist)ga yuklatilgan bo‘lib, fortepiano faqat jo‘rlik (akkompanement) vazifasini o‘taydi. Bunda solist ijro etayotgan kuy mustaqil, ijrosi fortepianosiz ham ma’lum darajada tugallangan bo‘ladi. Bunday musiqa asarlari o‘zining tuzilishi bo‘yicha nisbatan oddiy bo‘lib, ulardan ta’limning boshlang‘ich davrlarida foydalanish mumkin. Lekin bundan o‘quvchi sozanda fortepiano partiyasiga e’tibor bermasa ham bo‘laveradi, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Bunday musiqa asarlarini ijro qilish paytida o‘quvchi fortepianoda ijro etilayotgan akkordlar va ritmik shartlarni o‘z ijrosi bilan birgalikda eshita olishi lozim. O‘zbek xalq cholg‘uchilarida ijroni o‘rganayotgan yosh sozandalarda fortepiano bilan birgalikdagi ijro paytida ko‘proq uchrab turadigan kamchiliklardan biri musiqa asari ijrosini fortepiano bilan bir vaqtda boshlay olmaslikdir. Bu paytda o‘quvchining diqqati tamomila o‘zining ijrosiga qaratiladi va natijada fortepiano jo‘rligi solistning ijrosi bilan bir vaqtga to‘g‘ri kelmay qoladi. Ijroni fortepiano bilan birgalikda boshlash ko‘nikmasini shakillantirishda musiqa asarining birinchi tovushi boshlanishdan oldingi harakat hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Buni asarning boshlanishidagi dirijorning qo‘l harakati (auftakt)ga o‘xshatish mumkin. Musiqa asari davomida cholg‘uchi partiyasida

ma'lum miqdorda pauzalar uchrab turadi. Bunday paytda fortepianodagi ijro odatda davom etadi. O'quvchi pauzalarning necha taktligini eslab qolishoi bilan bir qatorda o'z ijrosining qachon boshlanishini ham puxta bilib olishi kerak. Bunda pauza davomidagi fortepiano ijrosini to'la anglab olishi yaxshi natija beradi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasida an'anaviy va mukammallashtirilgan milliy cholg'u asboblarining va ularda ikki xil (an'anaviy og'zaki hamda akademik) ijrochilikning mavjudligi o'zaro ta'sir hamda o'zaro bir-birini boyitish uchun ajoyib sharoit yaratadi. Bular bari, pirovard natijada, umuman o'zbek milliy madaniyati ravnaq topishiga ko'maklashadi. Shunday qilib, milliy cholg'u asboblarini takomillashtirish jarayoni o'zbek xalqining an'anaviy madaniyati ehtiyojlari bilan yuzaga kelgan hodisa sifalida, zamonaviy musiqa madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Cholg'u asboblarini mukammallashtirishning roli, ularning texnik, badiiy va ifoda imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, janrlar soni va sifati boyib borishi jarayoni yuz berayotganida ham namoyon bo'ladi. Milliy cholg'u asboblarini takomillashtirish jarayonining amal qilish ko'laim respublika madaniy va ijtimoiy hayotining turii sohalariga yoyiladi. Yuqorida zikr etilgni milliy musiqa asboblari mukammallashtirilishi bilan yagona xalqaro nota tizimidan foydalanish imkoniyati yaratildi, natijada repertuar jahon musiqa adabiyoti yutuqlari bilan to'ldirildi. Mukammallashtirilgan milliy musiqa asboblarining umumiy musiqa ta'limini rivojlantirishdagi, keng mehnatkashlar ommasini musiqadan bahramand etishdagi ahamiyati chindan ham va, shubhasiz, cheksiz. Milliy cholg'u asboblarining mukammallashtirilishi, zarurat sifatida, yangi zamonaviy, akademik yozma umum milliy ijrochilik madaniyatining rivojlanishiga olib keldi.

Cholg'u asboblari mukammallashtirilishi jarayonining musiqa madaniyatiga hamda xalq tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadigan jihatlarining rangbarangligi milliy sozlarning jamiyatni rivojlantirishdagi roli muhimligini belgilab beradi.

Fydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аведова Н.А. Искусство оформления узбекских музыкальных инструментов. Ташкент. 1966. .
2. Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati tarixi. T., 1996.
3. Атлас музыкальных инструментов народов СССР. М., 1963, 1975.
4. Актуальные проблемы оркестрового исполнительства на узбекских народных инструментах. Т., 1988.
5. Azimov K. O'zbek xalq cholg'ulari havaskorlik orkestrn bilan ishlash uslubiyati. T., 2002.
6. Беляев В. Руководство для обмера народных музыкальных инструментов. М., 1931.

7. Беляев В. Музыкальные инструменты Узбекистана. М., 1933.
8. Берлиоз Г. О современной инструментовке и оркестровке. I—II т. М., 1972.
9. Витачек Е. Очерки по истории изготовления смычковых инструментов. М—Л. 1952.
10. Вызго Т., Петросянц А. Узбекский оркестр народных инструментов. Ташкент, 1962. л, шоп
11. Вызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии. М., 1986.
12. Вопросы музыкального образования в Узбекистане. Т., 1977.
13. Виноградов В.С. Музыка Советского Востока. М., 1968.